

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TRANSPORT
SERVISI VA LOGISTIKA XIZMATLAR FANIDAN MALAKA TEST
SINOV I TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TRANSPORT SERVISI VA LOGISTIKA XIZMATLAR FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. MAQSAD

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini aniqlash test tizimi doirasida Transport servisi va logistika xizmatlar yo‘nalishi bo‘yicha talabgorlarning bilim darajasini aniqlash hamda ularni sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formatini (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibini, kognitiv ko‘nikma darajalarini, baholash mezonlarini va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Transport servisi va logistika xizmatlar

1. Xizmat ko‘rsatish korxonalarini ishini tashkil qilishda matematik modellashtirish usullaridan foydalanish.
2. .Logistik markazlarning faoliyati
3. Logistik markazda yuklar saqlash xizmatini ko‘rsatish uchun konteyner maydonini tanlash
4. Tez buziluvchan yuklarni tashishni tashkil etishni logistik xizmatlar
5. Temir yo‘l transportida izotermik vagonlarda oziq – ovqat sanoati mahsulotlarini tashishni tashkil etish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Xizmat ko'rsatish korxonalarini ishini tashkil qilishda matematik modellashtirish usullaridan foydalanish.	Tashishni tashkil etishning zamonaviy usullari bilishu, transport servis va logistik xizmatlarni tezkor rejalashtira olishi, xizmat ko'rsatish korxonalarining ishini tashkil qila olishi haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	20 %	8 ta
2	Logistik markazlarning faoliyati	Logistik markaz tushunchasi uning mohiyati bilishi, logistik markaz va transport logistik markazining tamoyillarini bilishi, tashishni tashkil etishning zamonaviy usullarini bilishi, yuklarni intermodal, unimodal va multimodal tashishlarni tashkil eta olishi, terminalli tashish tizimlari haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	20 %	8 ta
3	Logistik markazda yuklar saqlash xizmatini ko'rsatish uchun konteyner maydonini tanlash	Konteyner terminalining bosh rejasi bilishi, konteyner terminallarida joylashgan oby'ektlarni bilishi, yuk terminalining bosh rejasiga bo'lgan talablari haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	27,5 %	11 ta
4	Tez buziluvchan yuklarni tashishni tashkil etishni logistik xizmatlar	Tez buziluvcham yuklarning xususiyatlari va ularni tashishga tayyorlashni bilishi, tashish usulini tanlash va harakatlanuvchi tarkibni tayyorlash haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	15 %	6 ta
5	Temir yo'l transportida izotermik vagonlarda	Temir yo'l transportida izotermik vagonlarda sanoat mahsulotlarini tashishni tashkil	17,5 %	7 ta

	oziq – ovqat sanoati mahsulotlarini tashishni tashkil etish.	qila olishi, transport turini tanlay olishi, ichki tashish ishlarini tashkil eta olishi, transport vositalarining miqdorini hisoblash haqida bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.		
--	--	--	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

Mazkur test varianti talabgorlarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularni amaliyotda qo‘llash va tahliliy fikrlash darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, kognitiv ko‘nikmalar quyidagi darajalar bo‘yicha taqsimlangan:

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotlarni, asosiy tushuncha va atamalarni eslab qolish; transport servisi va temir yo‘l tizimiga oid asosiy qoidalarni tushunish; nazariy bilimlarni umumiy darajada tahlil qila olish ko‘nikmalarini qamrab oladi.	20 %
2	Qo‘llash	O‘zlashtirilgan nazariy bilim va tushunchalarni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olish; transport servisi jarayonlarini rejalashtirish, hujjatlar bilan ishlash, poyezdlar harakatini tashkil etish kabi masalalarda bilimlarni tatbiq eta olish; muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini baholaydi.	60 %
3	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, jarayonlar va ko‘rsatkichlarni mantiqiy tahlil qilish; transport jarayonlarining ketma-ketligini aniqlash; mavjud vaziyatni chuqur tahlil qilib, xulosalar chiqarish va takliflar ishlab chiqish ko‘nikmalarini qamrab oladi.	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

Mazkur test varianti talabgorlarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari hamda mantiqiy fikrlash darajasini kompleks baholash maqsadida turli shakldagi test topshiriqlaridan tashkil topgan. Test topshiriqlari quyidagi turlarga ajratiladi:

T/r	Test turi	Izohi
1	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test. Ushbu turdagi savollar orqali talabgorning asosiy tushunchalar, atamalar va nazariy bilimlarni eslab qolish hamda to'g'ri javobni tanlash ko'nikmalari baholanadi.
2	Y2	Bir nechta variantlar ichidan to'g'ri javoblarni tanlashni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test. Bu turdagi topshiriqlar orqali talabgorning bilimlarni tahlil qilish va bir nechta to'g'ri javoblarni ajrata olish qobiliyati aniqlanadi.
3	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test. Ushbu test turi orqali tushunchalar, jarayonlar yoki elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va to'g'ri moslashtirish ko'nikmalari baholanadi.
4	Y4	Gaplar, bosqichlar yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirishni talab qiladigan yopiq test. Bu turdagi topshiriqlar talabgorning mantiqiy fikrlash, jarayonlarni tushunish va ularning ketma-ketligini aniqlash ko'nikmalarini baholaydi.

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Mazkur test varianti talabgorlarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash uchun mo'ljallangan bo'lib, baholash mezonlari quyidagicha belgilangan:

Test topshiriqlari umumiy 80 ballik tizim asosida baholanadi. Har bir test topshirig'i uchun maksimal 2 ball beriladi.

To'g'ri javob – 2 ball;

Noto'g'ri javob yoki javob belgilanmagan holat – 0 ball.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: Imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: Nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Javobgarlik: Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni belgilangan tartibda

rasmiylashtiradi, talabgorni testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Qo‘shimcha vaqt: Alohida ta‘limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun test topshiriqlarini bajarishda qo‘shimcha 15 % vaqt beriladi.

Moslashtirilgan topshiriqlar: Test topshiriqlarining berilish shakli va turi talabgorlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, ular uchun qulay va mos shaklda taqdim etiladi.

Texnik yordam: Ko‘rish imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berish uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi. Bunda yordamchi faqat savollarni o‘qib berishi mumkin, to‘g‘ri javobni aytishi taqiqlanadi.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Rasulov M.X., Mirzayeva G.A. Temir yo‘l transportida harakatni tashkil qilish va boshqarish. – Toshkent, 2007-y.

2. Turdimatov O., Ibragimov N. Yuk va yo‘lovchilarni tashishni tashkil qilish. – Toshkent, 2007-y.

3. Shorustamov A., Abdullaev R. Temir yo‘l bekatlari va tugunlari. – Toshkent, 2007-y.

4. Samikova D., Baxtiyorova M. “Temir yo‘l bekatlari va tugunlari” fanidan kurs ishini bajarish uchun uslubiy ko‘rsatma. – Toshkent, 2023-y.

5. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llarida poyezdlar harakati va manyovr ishlari bo‘yicha yo‘riqnoma. – Toshkent: “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, 2003-y.

6. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llarida texnikaviy foydalanish qoidalari. – Toshkent: “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, 2004-y.

7. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llarida signallashtirish bo‘yicha yo‘riqnoma. – Toshkent: “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, 2005-y.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*